

## O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1</sup> 2025- yil yanvar-fevral


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-fevral oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **136 046,1** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,2 %** ni tashkil etib, uning hajmi esa **26 451,9** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: 2024- yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar hajmi 109 594,2 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 116,7 % ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan (**3 009,8** ming so'm) 2025- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **650,2** ming so'mga yoki **10,0 %** ga o'sib, **3 660,0** ming so'mni tashkil etgan.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **74 876,2** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **55,0 %** ini, jumladan, **34,1 %** ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

<sup>1</sup> 2024- yil yanvar-fevral oylari hajmi va 2025- yil yanvar-fevral oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



## II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari  
2025- yil yanvar-fevral

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>O'zbekiston Resp. <sup>2</sup></b>	<b>136 046,1</b>	<b>100,0</b>	<b>112,2</b>
Qoraqalpog'iston Resp.	4 446,5	3,3	107,4
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	6 684,1	4,9	112,3
Buxoro	5 358,4	3,9	108,5
Jizzax	3 110,9	2,3	109,2
Qashqadaryo	6 819,7	5,0	111,4
Navoiy	3 258,7	2,4	111,7
Namangan	6 780,4	5,0	109,0
Samarqand	9 611,2	7,1	113,6
Surxondaryo	4 540,6	3,3	111,4
Sirdaryo	1 813,6	1,3	111,0
Toshkent	9 080,2	6,7	110,7
Farg'ona	8 911,1	6,5	111,2
Xorazm	4 468,3	3,3	109,3
Toshkent shahri	51 634,5	38,0	114,8

### Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

Toshkent shahrining yuqori ulushi (**38,0 %**) uning poytaxt maqomi bilan izohlanadi, u O'zbekistonning eng yirik shahridir. Poytaxtda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Toshkent rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

## III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

<sup>2</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar **14,6 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissasi **2,6** bandni tashkil etdi), transport xizmatlari **12,9 %** ga (o'sishiga hissasi **2,5** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **11,0 %** ga (o'sishiga hissasi **2,1** band), savdo xizmatlari **9,4 %** ga (o'sishiga hissasi **1,6** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **23,1 %** ga (o'sishiga qo'shgan hissasi **1,6** band) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **10,7 %** ga (o'sishiga hissasi **0,3** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-fevral)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2024- y.	2025- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>109 594,2</b>	<b>136 046,1</b>	<b>112,2</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	7 635,1	11 020,2	123,1
moliyaviy xizmatlar	19 750,1	23 347,2	114,6
transport xizmatlari	21 545,6	27 200,0	112,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>10 699,4</i>	<i>13 276,5</i>	<i>110,7</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	20 762,6	25 783,5	111,0
savdo xizmatlari	19 006,3	21 890,9	109,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2 913,0	3 655,3	110,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	3 932,3	4 838,8	105,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2 354,4	2 903,9	109,1
ijara xizmatlari	1 420,7	1 851,7	103,1
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 753,6	2 130,0	109,6
shaxsiy xizmatlar	2 286,8	2 913,5	107,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 345,7	1 895,1	111,8
boshqa xizmatlar	4 888,0	6 616,0	113,2


**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida transport xizmatlari **20,0 %**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **18,9 %**, moliyaviy xizmatlar **17,2 %**, savdo xizmatlari **16,1 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **8,1 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,5 %** ulushini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida transport xizmatlari **19,7 foiz**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **18,9 foiz**, moliyaviy xizmatlar **18,0 foiz**, savdo xizmatlari **17,3 foiz**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **7,0 foiz**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,6 foiz** ulushni tashkil etgan.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi  
2025- yil yanvar-fevral, %



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **kompyuter dasturlashtirish xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **44,1** foizni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan esa **34,3** foizga o'sgan.

2025- yilning yanvar-fevral oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urta xizmatlarida** o'sish kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan hajmi **302,9** mlrd so'mga yoki **28,2** foizga o'sishi kuzatilgan.

Sug'urta xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi





2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **havo transporti xizmatlari (119,1 %)**, **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (130,4 %)**, **pochta va kuryerlik (157,1 %)** xizmatlarida yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **95,7 %** ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **111,2 %** ni tashkil etdi.

#### **IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar**

##### **Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:**

- a) yirik tijorat korxonalarini bo'yicha statistik hisobot;
- b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari asosida faoliyati tugatilgan korxonalar bo'yicha hisoblangan hajmlarni hisobga olgan holda baholash;
- d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;
- e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmat ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ko'rsatilgan xizmatlar uchun ma'lum bir sanadagi bozor xizmatlari qiymatini anglatadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyektini bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lovga yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan



xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

## V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

---

**Chiqarish uchun javobgar:**  
Xizmatlar sohasi statistikasi  
boshqarmasi

**Manzil:** 100170, Toshkent,  
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63  
**Pochta:** info@stat.uz  
**Tel.:** 71-202-80-59 (61)

